



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024-yil yanvar-fevral



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-fevral)



Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi -
63,9 %



Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi –
898,2
ming so'm




Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi - **69,1 %**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- mart holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(yanvar-fevral)





Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-mart holatiga ko'ra)




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-fevral)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾


(2024-yil yanvar-fevral)



■ Hajmi, mlrd. so'mda  O'sish sur'ati

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024-yil yanvar-fevral)




¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2024-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-fevral)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	2 552,5	100,0	109,8
Termiz sh.	730,0	28,6	107,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	101,6	4,0	110,5
Angor	106,0	4,2	111,2
Boysun	80,0	3,1	111,5
Bandixon	56,7	2,2	110,4
Muzrabot	109,6	4,3	111,0
Denov	326,7	12,8	110,5
Jarqo'rg'on	145,3	5,7	111,4
Qumqo'rg'on	158,8	6,2	108,5
Qiziriq	92,3	3,6	110,2
Sariosiyo	153,0	6,0	109,8
Termiz	116,6	4,6	115,0
Uzun	105,8	4,1	109,4
Sherobod	135,4	5,3	111,2
Sho'rchi	134,7	5,3	111,1


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-fevral)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	898,2	107,2
Termiz sh.	3675,5	104,4
Oltinsoy	533,8	108,0
Angor	746,1	108,7
Boysun	648,9	109,2
Bandixon	691,7	107,4
Muzrabot	721,1	108,7
Denov	787,5	107,8
Jarqo'rg'on	617,8	108,7
Qumqo'rg'on	629,5	106,0
Qiziriq	753,1	108,0
Sariosiyo	679,3	107,3
Termiz	1395,9	112,0
Uzun	570,0	106,9
Sherobod	649,8	108,9
Sho'rchi	596,3	108,5

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar- fevral)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **17,0** foizni, shu jumladan, **63,9** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024-yil yanvar-fevral)

Surxondaryo viloyati	1 632,0
Termiz sh	340,0
Denov	199,2
Jarqo'rg'on	106,8
Sariosiyo	101,2
Sherobod	100,2
Sho'rchi	97,7
Qumqo'rg'on	95,8
Muzrabot	86,7
Angor	81,2
Termiz	79,2
Oltinsoy	79,8
Uzun	78,3
Qiziriq	75,4
Boysun	63,8
Bandixon	46,8

Hajmi, mlrd. so'mda


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-fevral)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	2 552,5	100,0	109,8
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	137,2	5,4	115,2
Moliyaviy xizmatlar	603,0	23,6	101,3
Transport xizmatlari	418,3	16,4	113,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	369,1	14,5	108,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	100,2	3,9	112,0
Savdo xizmatlari	786,5	30,8	112,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	62,6	2,5	111,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	103,2	4,0	109,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	33,1	1,3	107,3
Ijara xizmatlari	52,8	2,1	111,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	68,6	2,7	107,3
Shaxsiy xizmatlar	84,1	3,3	110,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	35,8	1,4	126,6
Boshqa xizmatlar	67,1	2,6	118,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024-yil yanvar-fevral)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-fevral)



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **45,7** foizni yoki **275,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023-yilning yanvar-fevral** oyilariga nisbatan Termiz shahrida yuqori o'sish sur'ati **98,5** % ni tashkil etdi.


■ Hajmi, mlrd. so'mda

Transport xizmatlarining umumiy hajmi-da avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,2 %**.

Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **74,2** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **111,9 %** ni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar-fevral)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024-yil yanvar-fevral)





¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-fevral)

2024-yil yanvar oyida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **369,1** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **14,5 %** ni tashkil etdi



Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari
(2024-yil yanvar-fevral)



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi
(2024-yil yanvar-fevral)



Yo'lovchi tashish



Yuk tashish

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


2024-yilning yanvar-fevral

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **68,9** foizini tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-fevral)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar-fevral)

Surxondaryo viloyati	786,5
Termiz sh	143,8
Denov	106,4
Sherobod	49,4
Sariosiyo	48,6
Muzrabot	48,6
Jarqo'rg'on	48,5
Sho'rchi	47,2
Qumqo'rg'on	45,3
Angor	42,4
Oltinsoy	41,0
Termiz	38,4
Uzun	38,0
Qiziriq	37,7
Boysun	28,4
Bandixon	22,8


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-fevral** oylarida ularning ulushi **91,3** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-fevral)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-fevral)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi (%)
Surxondaryo viloyati	137,2	+15,2 %
Termiz sh	22,1	+69,2 %
Denov	18,1	+4,9 %
Qumqo'rg'on	11,5	+18,5 %
Jarqo'rg'on	10,5	+15,2 %
Sariosiyo	9,7	+0,6 %
Sherobod	8,9	+12,8 %
Sho'rchi	8,8	+3,8 %
Oltinsoy	8,3	+1,7 %
Uzun	8,0	+5,0 %
Muzrabot	6,4	+11,3 %
Angor	6,2	+13,6 %
Boysun	5,6	+18,2 %
Qiziriq	5,3	+5,6 %
Termiz	4,2	+2,0 %
Bandixon	3,5	+15,8 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda


O'sishi

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024-yil yanvar-fevral)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	137,2	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	134,3	97,8
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	123,3	91,8
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	11,0	8,2
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	2,9	2,2
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa nashirlik xizmatlari	1,9	65,5
Kino - videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	0,2	6,9
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,2	6,9
Boshqa axborot xizmatlari	0,6	20,7

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar-fevral** oylaridagi ulushi **57,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-fevral)


Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Surxondaryo viloyati	103,2	+9,2 %
Termiz sh	52,4	+10,5 %
Denov	18,5	+9,6 %
Termiz	6,1	+5,0 %
Sho'rchi	4,7	+6,7 %
Sherobod	4,4	+9,1 %
Jarqo'rg'on	2,9	+6,7 %
Sariosiyo	2,4	+10,6 %
Qumqo'rg'on	2,1	+7,2 %
Uzun	1,9	+5,0 %
Qiziriq.	1,9	+9,3 %
Angor	1,7	+5,7 %
Oltinsoy	1,5	+4,1 %
Boysun	1,2	+2,1 %
Muzrabot	1,2	+12,9 %
Bandixon	0,3	+18,0 %

Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral)

2024-yilning yanvar oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **42,1** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-fevral)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **94,0** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar-fevral)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Surxondaryo viloyati	62,6	+11,5 %
Termiz sh	11,9	+9,3%
Denov	6,8	+12,0 %
Jarqo'rg'on	5,7	+10,4 %
Angor	4,6	+14,6 %
Sho'rchi	4,3	+11,7 %
Sariosiyo	4,0	+13,0 %
Sherobod	3,5	+12,1 %
Qumqo'rg'on	3,2	+10,6 %
Uzun	3,2	+16,9 %
Qiziriq	3,1	+9,3 %
Boysun	2,9	+10,6 %
Oltinsoy	2,8	+11,4 %
Muzrabot	2,6	+15,4 %
Termiz	2,4	+9,2 %
Bandixon	1,6	+10,0 %


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral)

2024-yilning yanvar-fevral

oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **88,2 foiz.**



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-fevral)



1) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-fevral)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024-yil yanvar-fevral, mlrd. so'mda)




2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi 20,4 mlrd. so'mga oshib, 52,8 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2024-yil yanvar-fevral oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 66,3 % ni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-fevral)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **33,3** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-fevral)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Surxondaryo viloyati	68,6	+7,3 %
Termiz sh	12,5	-2,3 %
Denov	7,7	+6,2 %
Sariosiyo	4,5	+7,1 %
Sho'rchi	4,4	+10,2 %
Qumqo'rg'on	4,4	+8,8 %
Jarqo'rg'on	4,4	+9,4 %
Sherobod	4,2	+8,9 %
Angor	3,9	+7,8 %
Uzun	3,7	+8,7 %
Oltinsoy	3,7	+8,7 %
Muzrabot	3,4	+8,0 %
Qiziriq	3,2	+9,5 %
Termiz	3,1	+10,5 %
Boysun	3,0	+9,8 %
Bandixon	2,5	+10,7 %


1) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd. so'mda


 O'sishi

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-fevral, mlrd. so'mda)



2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **22,4** mlrd. so'mga oshib, **35,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **81,0** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 76-225-65-91

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.